



Toshkent shahrida o'rta maxsus
va professional ta'lim

2024/2025 o'quv yili boshiga


- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda Toshkent shahrida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **7 taga**, ya'ni **11,0 % ga** ko'payib, **66 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2024/2025 o'quv yili boshida **28 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan o'zgarish kuzatilmagan. Shuningdek,



texnikumlar sonida o'sish qayd etilgan. Mazkur davr davomida ularning soni **13 taga (45 % ga)** oshib, 2024/2025 o'quv yili boshida **24 tani** tashkil etgan.

Kasb-hunar maktablari va kollejlari sonida esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida pasayish kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablari soni **1 taga (ya'ni 17 % ga)**, kollejlari soni **5 taga (36 % ga)** kamayib, tegishlilikicha **5 ta** va **9 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Toshkent sh.	28	5	9	24
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	-	-	1	3
Bektemir	1	-	1	-
Yunusobod	4	-	-	2
Mirzo Ulug'bek	2	2	-	2
Mirobod	3	-	-	3
Shayxontohur	4	1	2	2
Olmazor	5	-	1	2
Sirg'ali	-	1	-	2
Yakkasaroy	3	-	1	2
Yashnobod	1	-	-	1
Yangiheyot	-	-	1	1
Chilonzor	5	1	2	4

Eng ko'p akademik litseylar Olmazor va Chilonzor (**5 tadan**), Yunusobod va Shayxontohur (**4 tadan**) tumanlarida kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – Mirzo Ulug'bek (**2 ta**) tumani, kollejlari bo'yicha – Shayxontohur va Chilonzor (**2 tadan**) tumanlari, hamda texnikumlar soni bo'yicha Chilonzor (**4 ta**), Uchtepa va Mirobod (**3 tadan**) tumanlari eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

Boshqa tumanlarga nisbatan, eng kam akademik litseylar Bektemir va Yashnobod tumanlarida (har birida **1 tadan**) kuzatilgan. Eng kam kasb-hunar maktablari Shayxontohur, Sirg'ali va Chilonzor (**1 tadan**) tumanlarida joylashgan. Kollejlari soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Uchtepa, Bektemir, Olmazor, Yakkasaroy va Yangiheyot (**1 tadan**), tumanlarida belgilangan. Texnikumlar soni bo'yicha ham Yashnobod va Yangiheyot (**1 tadan**), Yunusobod,

Mirzo Ulug'bek, Shayxontohur, Olmazor, Sirg'ali va Yakkasaroy (**2 tadan**) tumanlari eng past ko'rsatkichga ega bo'lganlar.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

[Kollejlar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Shaharda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2023/2024 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **1,9 ming nafardan 2,3 ming nafargacha** ko'paygan, ya'ni **21,1 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa **11,8 ming nafardan 5,7 ming nafargacha**, ya'ni **2,1 barobarga** kamaygan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)

Академик лицейлар



Касб-ҳунар мактаблари



Коллежлар



Техникумлар



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin — **5,5 ming nafardan 5,9 ming nafargacha**, ya'ni **7,3 % ga** oshgan. Biroq, kollejlarda qabul qilinganlar soni keskin kamaygan — **1,3 ming nafardan 0,7 ming nafargacha**, deyarli **1,9 barobarga**.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)



	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent sh.	5898	2298	727	5745
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	-	-	44	253
Bektemir	211	-	49	-
Yunusobod	789	-	-	484
Mirzo Ulug'bek	420	398	-	71
Mirobod	642	-	-	1855
Shayxontohur	1182	760	89	449
Olmazor	1147	-	261	384
Sirg'ali	-	545	-	895
Yakkasaroy	523	-	81	362
Yashnobod	185	-	-	122
Yangihayot	-	-	40	90
Chilonzor	799	595	163	780

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Shayxontohur tumani (**1,2 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha - Shayxontohur tumani (**0,7 ming nafar**) va kollejlari bo'yicha - Olmazor tumani (**0,2 ming nafar**), texnikumlar bo'yicha - Mirobod tumani (**1,8 ming nafar**)da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Yashnobod tumani (**0,2 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Mirzo Ulug'bek tumani (**0,4 ming**), kollejlari bo'yicha — Yangihayot tumani (**40 nafar**), texnikumlar bo'yicha - Mirzo Ulug'bek tumani (**90 nafar**)da eng past ko'rsatkichlar belgilangan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Toshkent shahrida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **0,3 ming nafarga**, ya'ni deyarli **1,0 % ga** ko'payib, **30,2 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)

Академик лицейлар



Касб-ҳунар мактаблари



Коллежлар



Техникумлар



Kasb-hunar maktablariida tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025 o'quv yili boshida ularning soni **4,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **9,1 % ga** kamaygan. Shuningdek, kollej o'quvchilari sonida ham kamayish kuzatilgan — ushbu davr mobaynida **6,3 ming nafarga** (ya'ni **78,8 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **1,7 ming nafarni** tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida akademik litsey va texnikumlardagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshiga kelib, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan akademik litsey o'quvchilari soni **0,9 ming nafarga**, ya'ni **9,0 % ga** oshgan, texnikumlarda esa **6,1 ming nafarga** (**81,3 % ga**) ko'paygan. Tegishliligi bo'yicha ularning umumiy soni **10,9 ming** va **13,6 ming nafarni** tashkil etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olmazor tumanida (**2,1 ming**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Shayxontohur tumanida (**1,3 ming**), kollejlari bo'yicha Olmazor tumanida (**0,5 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Mirobod tumanida (**4,6 ming**) qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan akademik litseylardagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Yashnobod tumanida (**0,3 ming**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanida (**4,8 ming**), kollejlari bo'yicha Bektemir tumanida (**0,1 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Yangiheyot tumanida (**0,2 ming**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)



	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent sh.	10928	4045	1737	13641
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	-	-	107	601
Bektemir	401	-	93	-
Yunusobod	1453	-	-	1301
Mirzo Ulug'bek	938	805	-	179
Mirobod	1122	-	-	4623
Shayxontohur	2062	1334	327	1098
Olmazor	2121	-	535	393
Sirg'ali	-	884	-	2415
Yakkasaroy	981	-	159	590
Yashnobod	335	-	-	212
Yangiheyot	-	-	105	193
Chilonzor	1515	1022	411	2036

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda shaharda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024-yilda, 2021-yilga nisbatan, ularning umumiy soni **1,8 barobarga** oshib, **12,6 ming nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **1,7 ming nafarga** (ya'ni **2,4 barobarga**), kollejlarnikida **o'zgarish** qayd etilmagan, texnikumlarniki esa **5,1 ming nafarga** (**17,0 barobarga**) oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **0,2 ming nafarga**, ya'ni **4,0 % ga** kamaygan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)





Bitiruvchilar sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent sh.	4803	1706	1030	5100
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	-	-	38	300
Bektemir	172	-	22	-
Yunusobod	675	-	-	534
Mirzo Ulug'bek	540	397	-	226
Mirobod	504	-	-	967
Shayxontohur	846	627	117	787
Olmazor	806	-	306	23
Sirg'ali	-	273	-	371
Yakkasaroy	435	-	75	-
Yashnobod	129	-	-	55
Yangiheyot	-	-	39	122
Chilonzor	696	409	433	1715

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshida Toshkent shahridagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **2 376 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **501 nafarga**, ya'ni **21,1 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



2024/2025 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **1 079 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **16,9 % ga** oshgan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida ham o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **21 nafarga**, ya'ni **8,1 % ga** ko'payib, **260 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **310 nafarga** (**49,2 % ga**) oshib, **669 nafarga** yetgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kupayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **14 nafarga** (**3,8 % ga**) oshib, 2024/2025 o'quv yili boshida **368 nafarni** tashkil etgan.

Eng ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni akademik litseylar bo'yicha Chilonzor tumani (**286 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Shayxontohur tumani (**106 nafar**), kollejlarda bo'yicha — Olmazor tumani (**181 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa — Mirobod tumani (**155 nafar**) da kuzatilgan.



Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent sh.	1 079	260	386	669
<i>viloyatlar:</i>				
Uchtepa	-	-	70	32
Bektemir	33	-	2	-
Yunusobod	149	68	-	100
Mirzo Ulug'bek	66	-	-	8
Mirobod	103	-	-	155
Shayxontohur	153	106	26	62
Olmazor	176	-	181	19
Sirg'ali	-	39	-	93
Yakkasaroy	86	-	76	35
Yashnobod	27	-	-	16
Yangiheyot	-	-	7	9
Chilonzor	286	47	24	140

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(ayollar\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(erkaklar\)](#)

**VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy
tushuntirishlar va metama'lumotlar**

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100000, Toshkent sh.,
Amir Temur ko'chasi, 11
El. manzil: @toshstat.uz
Tel.: 71-203-88-27

